

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



Ro'y qo'yilgan
№ 11224/2024 yil
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining
2024 yil 27 dekabr dagi
485 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

“Ona tili va adabiyot”
yoʻnalishi boʻyicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining oʻquv dasturi

- o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos ma'lumotlar bankini shakllantirishni;
- lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- matn bilan ishlash yordamida shaxs kompetensiyasini shakllantirishga oid mashqlar bilan ishlashni;
- fonetika va leksikologiya, unga oid yangi qarashlarini;
- fonetik birliklar va ularning vazifalarini;
- so'zning shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitishda ma'ruzalarning roli va o'qituvchining mahoratini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ta'lim standartlariga moslashtirish asosida tubdan yangilashni qo'llay olish;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos ma'lumotlar bankini shakllantirish;
- lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- matn bilan ishlash yordamida shaxs kompetensiyasini shakllantirishga oid mashqlar bilan ishlash;
- fonetik birliklar va ularning vazifalari ni bilish;
- gapni sintaktik tahlil qilish;
- mumtoz adabiyot va unga oid asarlarni tahlil qilishni qo'llay olish *ko'nikma* va *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning samarali metodlarini fan xususiyatiga mos holda kengaytirish;
- barqaror atamalar, kasb-hunar so'zlarining ma'no xususiyatlari;
- fanlarni o'qitishda zamonaviy innovasion va axborot- kommunikasion texnologiyalaridan uyg'unlashtirilgan holda foydalanishni;

- so'zning shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turlashni;
- XIII-XVII asrlar adabiyoti va unga oid qarashlar tahlil qilish;
- mustaqillik davri adabiyoti, asosiy tamoyillari bo'yicha kreativ kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“ONA TILI VA ADABIYOT” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Til kompetentligini rivojlantirishning dolzarb muammolari.

Til kompetentligini rivojlantirishning mazmuni. Til kompetentligi turlari va xususiyatlari. Kompetentlik va kompetentlikning turlari. Til kompetentligini rivojlantirishning metodlari. Til kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar. Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalar. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi til muammolari, metodikada yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Til kompetentligini rivojlantirish yechimlari. Fonetik, leksik, morfologik kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida rivojlantirish. Kognitologiyistik, sotsiologiyistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar.

1.2. Davlat tilida ish yuritish sifati va mavqini oshirish.

Ona tili darslarida o'quvchilarning ish yuritish bo'yicha yozma nutq savodxonligini rivojlantirish. Hujjatchilik tarixida sharq hujjatchiligining o'ziga xos o'imi. Rasmiy hujjatlarni tayyorlash haqidagi nazariy ma'lumotlar hamda hujjatlarning zaruriy qismlarini to'g'ri qo'yish tamoyillari. Ish hujjatlari, ularning turlari va xususiyatlari. Tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari va ularning turlari. Ma'lumot-axborot hujjatlari va ularning turlari.

1.3. O'zbek tili va adabiyoti fanining nazariy asoslari.

Fonetika va leksikologiya, unga oid yangi qarashlar. Fonetik birliklar va ularning vazifalari. Leksema va so'z, belgilari. Leksik ma'no taraqqiyoti. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Grammatika va punktuatsiya, unga oid yangi qarashlar. Morfologiya, so'z turkumlari haqidagi qarashlar tahlili. Sintaksis, so'z birligini va gap. Gapni sintaktik tahlil qilish tamoyillari. Tinish belgilari ishlatilishi bilan bog'liq qarashlar tahlili. Mumtoz adabiyot va unga oid asarlarni tahlil qilish tamoyillari. Eng qadimgi adabiyot va unga oid yangi qarashlar. XIII-XVII asrlar adabiyoti va unga oid qarashlar tahlili. Zamonaviy adabiyot, tahlil tamoyillari va o'ziga xosligi. Jadid adabiyoti va uning o'ziga xosligi.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (ham mualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'ngi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini

umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zRQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrda chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni makkadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

17. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b
18. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg'ona: 2016.-108 b.
19. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – T.: Akademnashr, 2012. - 416 b.
20. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – T.: Fan, 2013. – 136 b.
21. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. - 41b.
22. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. – T.: Nodirabegim, 2020.
23. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili – Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
24. Hakimov M. O'zbek pragmatolingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013.
25. Ibragimova R.S. Fransuz va o'zbek tillarida AYOL konseptining lingvokognitiv tadqiqi: Filol.fan.nom. ...dis.avtoref. – Toshkent: O'zDJTU, 2012. – 24b.
26. Ivanova S.V. Kulturologicheskiy aspekt yazykovyx yedeniy. –Ufa, 2002.-114s.
27. Ismailov A.A., Jalalov J.J., Sattarov T.K., Ibragimxodjaeva I.I. Ingliz tili amaliy kursidan o'quv-uslubiy majmua. Basic User/Breakthrough Level A.1/. – Toshkent, 2011.-182 b.
28. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. –Toshkent: O'z.R. FA TAI, 2000-47 b.
29. Maslova V. Lingvokulturologiya: Ucheb.posobiye. –M.:Academia, 2001.-208 s.
30. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
31. Dafus M. Dziuda/ Data mining for genomics and proteomics. Canada, 2010. Ps-306.
32. Michael McCarthy "English Vocabulary in use". Cambridge University Press, 1999, Presented by British Council.
33. Simon Greenall "Reward" Elementary, Student's book, Macmillan 2002.

IV. Internet saytlar

34. <http://edu.uz>
35. <http://lex.uz>
36. <http://lib.bimn.uz>
37. <http://zivonet.uz>
38. <http://natlib.uz>

"ISHLAB CHIQLGAN":

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Direktor U.Sh.Begimkulov

"23" 12 2024- y.

M.O.



Farg'ona Davlat Universiteti

Rektor B.Sh.Shermuhommadov

"23" 12 2024- y.

M.O.

Farg'ona Davlat Universiteti huzuridagi
pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish mintaqaviy markazi

Direktor B.K.Baratov

"23" 12 2024- y.



M.O.

"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i

F.T.Esanboboyev

"23" 12 2024- y.

M.O.